



**JIZZAX VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL  
YANVAR-AVGUST**





# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, Jizzax viloyatida jami **2266,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **106,3 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




# 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



## Yillar kesimida soni



## Hududlar kesimida



1124

Bino va inshootlar  
qurilishi

444

Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

553

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2021- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 97,8 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 53,0 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,9 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 26,1 foiz ulushni tashkil etdi.





## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.09.2021- y.	01.09.2022- y.	
Jizzax viloyati	2168	2121	97,8
Jizzax sh.	929	891	95,9
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	60	53	88,3
Baxmal	76	69	90,8
G'allaorol	145	156	107,6
Sh. Rashidov	369	353	95,7
Do'stlik	71	68	95,8
Zomin	131	133	101,5
Zarbdor	107	112	104,7
Zafarobod	27	29	103,8
Mirzacho'l	53	55	107,4
Paxtakor	86	86	100,0
Forish	74	78	105,4
Yangiobod	40	38	95,0



# 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Jizzax sh. (42,0)



Sh.Rashidov (16,6)



G'allaorol (7,4)





# Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	2266535,5	119428,9	1632302,9	514803,7
Jizzax sh.	868164,1	47056,2	728354,7	92753,2
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	37300,4		17162,8	20137,6
Baxmal	80890,2		33281,6	47608,6
G'allaorol	149413,3	1207,8	88415,5	59790,0
Sh. Rashidov	385923,2		328642,7	57280,5
Do'stlik	54532,0		34480,0	20052,0
Zomin	237311,2	58526,6	133684,6	45100,0
Zarbdor	102914,4	6207,5	60949,2	35757,7
Zafarobod	40565,2	733,7	19956,4	19875,1
Mirzacho'l	53739,0	5697,1	24883,4	23158,5
Paxtakor	111024,1		79930,3	31093,8
Forish	109984,7		62476,6	47508,1
Yangiobod	34773,7		20085,1	14688,6

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2022- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 119428,9 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 139,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,2 % punktga ko'payib, 5,3 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust uchun




**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zomin tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 2,6 %) ga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 72,0 % i to'g'ri kelib, 2021- yil ko'rsatkichiga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 105,8 % ni tashkil etgan holda 1632302,9 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



72,0

2022- yil yanvar-avgust

73,4

2021- yil yanvar-avgust




**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jizzax shahri (728354,7 mln. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 44,6 %), Sh.Rashidov tumani (328642,7 mln. so'm yoki 20,1 %), Zomin tumani (133684,6 mln. so'm yoki 8,2 %)ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **22,7 %** ni tashkil etdi yoki **514803,7** mln. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan **101,9 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **21935,1** mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2244600,4** mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.


2021- yil yanvar-avgust



2022- yil yanvar-avgust




# Davlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2022-yil yanvar-avgust oylarida







# Nodavlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust oylarida





**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2022-yil yanvar-avgust oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **83,1 %** i yoki **1883800,6** mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**5,9 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **111316,0** mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **5,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1309476,7** mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **69,5 %** ni tashkil etdi.

**69,5%**

**24,6 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **463007,9** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **24,6 %** ni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust oylarida

	Qurilish ishlari, mln. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Jizzax viloyati	2266535,5	106,3	1883800,6
Jizzax sh.	868164,1	104,1	721563,0
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	37300,4	104,0	31001,8
Baxmal	80890,2	105,8	67230,8
G'allaorol	149413,3	105,7	124182,9
Sh. Rashidov	385923,2	105,8	320754,9
Do'stlik	54532,0	106,3	45323,5
Zomin	237311,2	123,7	197238,0
Zarbdor	102914,4	105,1	85535,9
Zafarobod	40565,2	100,1	33715,2
Mirzacho'l	53739,0	103,1	44664,4
Paxtakor	111024,1	104,1	92276,2
Forish	109984,7	104,6	91412,3
Yangiobod	34773,7	102,3	28901,7


*\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,3 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga kamayib, 72,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi, 22,7 % ni tashkil etdi.






# Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 26,7 % ni tashkil etdi va 2021-yilga nisbatan 2,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 72,7 % (2,3 % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi (0,6 % punktga ko'paydi).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2021- yil  
yanvar-avgust



2022- yil  
yanvar-avgust

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 4,4 % punktga kamaydi va 21,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 95,6 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilga nisbatan 21,8 % punktga ko'paydi.





# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Jizzax viloyati</b>	2266535,5	1835693,7	278048,4	152793,4
<b>Jizzax sh.</b>	868164,1	703136,3	106502,5	58525,3
<b>tumanlar:</b>				
<b>Arnasoy</b>	37300,4	30210,1	4575,8	2514,5
<b>Baxmal</b>	80890,2	65513,9	9923,2	5453,1
<b>G'allaorol</b>	149413,3	121011,6	18329,4	10072,3
<b>Sh. Rashidov</b>	385923,2	312563,7	47343,3	26016,2
<b>Do'stlik</b>	54532,0	44166,1	6689,7	3676,2
<b>Zomin</b>	237311,2	192201,1	29112,3	15997,8
<b>Zarbdor</b>	102914,4	83351,6	12625,1	6937,7
<b>Zafarobod</b>	40565,2	32854,2	4976,4	2734,6
<b>Mirzacho'l</b>	53739,0	43523,8	6592,5	3622,7
<b>Paxtakor</b>	111024,1	89919,8	13619,9	7484,4
<b>Forish</b>	109984,7	89077,9	13492,4	7414,4
<b>Yangiobod</b>	34773,7	28163,6	4265,9	2344,2

*\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*

*Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi*

*Aloqa telefoni: (72) 221-53-73*